

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi

33-mavzu: “Millat fidoyilari. Xotira va qadrlash”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga millat fidoyilari – Vatan ozodligi, tinchligi va taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan insonlar haqida tushuncha berish, xotira va qadrlash tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglatish, ularda ajdodlarga hurmat, bugungi tinch hayotga shukronalik va kelajak oldidagi mas‘uliyat hissini shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur mashg‘ulot davomida o‘quvchilar millat fidoyilari tushunchasi bilan tanishadilar, ularning tarixiy va zamonaviy misollari orqali Vatan uchun xizmat qilishning naqadar ulug‘ fazilat ekanligini anglaydilar. Dars jarayonida xotira va qadrlash an‘analari, ularning ma‘naviy ahamiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni videolavhalar, sahna ko‘rinishlari, interfaol o‘yinlar va guruhli muhokamalar orqali yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z munosabatini bildirish, hurmat va minnatdorlikni amalda ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarga millat fidoyilari tushunchasi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushuntirish;
2. Xotira va qadrlashning ma‘naviy-axloqiy ahamiyatini ochib berish;
3. Vatan himoyachilari, tarixiy shaxslar va fidoyi insonlarga hurmat ruhini shakllantirish;
4. O‘quvchilarda fuqarolik mas‘uliyati, minnatdorlik va ehtirom tuyg‘ularini rivojlantirish;
5. O‘quvchilarning nutqiy faolligini, tahliliy fikrlashini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Asosiy g‘oya:

Millat fidoyilarini yod etish va qadrlash – bu o‘z tarixini unutmaslik, bugungi tinch hayotning qadriga yetish va kelajak oldidagi burchni his etishdir.

Kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

O‘quvchilar millat fidoyilari kimlar ekanini va ularning jamiyatdagi o‘rnini tushunadi.

Xotira va qadrlash tushunchalarining mazmunini anglaydi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat va minnatdorlik hissi kuchayadi. Tinchlik va osoyishtalikning qadri chuqurroq his etadi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

O‘quvchilar xotira tadbirlarida faol va ongli ishtirok etishni o‘rganadi.

O‘z fikrini erkin bayon etish, boshqalarni tinglash va hurmat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

Jamiyatda milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraga hurmat shakllanadi. O‘quvchilarda Vatanga sadoqat va fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Metapredmet yondashuv:

Adabiyot: Qahramonlik va vatanparvarlik mavzusidagi she‘r va hikoyalarni o‘qish, ularning g‘oyasini tahlil qilish.

Tarix: Millat fidoyilari, urush yillari va mustaqillik davridagi qahramonlar haqida ma’lumot olish.

Musiqqa: Vatan, xotira va jasoratga bag‘ishlangan qo‘shiqlarni tinglash va kuylash.

Media savodxonlik: Videolavhalar asosida voqealarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Dars shakli: Interaktiv mashg‘ulot: suhbat, guruhli ish, sahna ko‘rinishi, videolavha tahlili, o‘yin va muhokama.

I. KIRISH QISMI (10 daqiqa)

O'qituvchi sinfga qo'lida uchburchak shaklida buklangan xat bilan kirib keladi. Uni ehtiyotkorlik bilan ochadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugun men sizlarga o'tmishdan bir xatni olib keldim. Bu aslida real yozilgan xat emas, lekin siz faraz qilingki, bu xat aynan sizga atab yozilgan.

Tasavvur qiling, xat bundan qariyb 80 yil oldin 18 yoshli yigit tomonidan yozilgan. U sizlar kabi maktabda o'qigan, orzular qilgan, kulgan, do'stlari bilan suhbatlashgan...

Lekin bir kun kelib, u yigitcha daftar-kitoblarini bir chetga yig'ishtirib urushga ketgan. Ketish oldidan mana shu xatni yozgan.

O'qituvchi xatni sekin, lekin ifodali o'qiydi.

Xat:

“Assalomu alaykum, kelajakdagi tengdoshim.

Men seni tanimayman. Lekin bilaman, sen tinch va farovon bir zamonda yashayapsan. Hozir men 18 yoshdaman. Kechagina xuddi sen kabi men ham maktab partasida o'tirgan edim. Do'stlarim bilan o'ynab-kulib yurardim. Porloq kelajak haqida, universitetga kirib, o'qish haqida rejalar qilardim...

Bugun esa qo'limda daftar emas, qurol, jangga ketyapman. Bu – adolatsizlik. Uning sababi esa – urush!

Rostini aytsam, qo'rquyapman. Chunki men ham yashashni xohlayman. Men hali boshlagan kitobimni o'qib tugatmadim, hali dunyoni ko'rmadim. Men hali onamni yetarlicha quchoqlamadim, “rahmat” ham ayta olmadim.

Balki men urushdan qaytmasman.

Bilginki, sen yashayotgan tinch hayot men kabi yosh yigitlarning ushalmay qolgan orzulari evaziga kelgan. Iltimos, umrning qadriga yet, vaqtini bekorga sarflama. Har bir kuningni qadrla.

Bir-biring bilan urishma.

Tinchlikni qadrla.

Chunki biz u kunlarga yetib bora olmadik, ammo bu tinchlik uchun umrimizni berdik. Sizlar unga yetdinglar. Demak, biz ham yetdik desak bo'ladi. Shunday yashaginki, shunday kashfiyotlar qilginki, dunyoda urush bo'lmasin.

Xayr. Sening o'tmishdagi akang.”

Pauza. Sinf jim turadi.

O'qituvchi: Bolalar... bir daqiqa o'ylab ko'ring. Agar shu xat sizga yozilgan bo'lsa... muallif sizdan nima so'rayapti?

O‘quvchilar: Tinchlikni qadrlashni. Yaxshi o‘qishni. Vaqtni bekorga sarflamaslikni.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Bugun sizlar tinch sinfda o‘tiribsiz, dars qilyapsiz. Hech kim sizni qo‘rqitmayapti, hech kim sizni majbur qilmayapti. Sizningcha, bu oddiy holatmi yoki kimningdir fidoyiligi natijasimi?

O‘quvchilar: Fidoyilik natijasi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri aytdingiz. Mana shu xatni yozgan yigit – millat fidoyisi. Chunki u o‘z hayotini emas, boshqalarning kelajagini tanladi.

Millat fidoyilari jamiyatning tinchligi, ravnaqi va kelajagini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yib, xalq uchun xizmat qiladigan odamlardir.

Biz bu fidoyilikni qadrlashimiz uchun o‘tmishni unutmasligimiz, qahramonlarimizning xotirasini saqlashimiz kerak.

Mana, yaqinda 9 may – “Xotira va qadrlash kuni”ni nishonlaymiz. Har yili aynan shu kuni Davlatimiz rahbari faxriylarni yo‘qlaydilar, marhumlarni eslaydilar. Bundan tashqari nafaqat 9-mayda, balki har doim, har kuni ularni qadrlash yo‘lida katta ishlar qilinadi. Kelinglar, hozir shu haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Bu xotira va qadrlash tuyg‘usi

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/569

O‘qituvchi: Demak, bugungi darsimizda biz ushbu uchta so‘zning mazmunini anglaymiz.

Doskaga yozadi.

XOTIRA, QADR, TINCHLIK.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolalar, xotira deganda ko‘pchilik shunchaki eslashni tushunadi. Lekin xotira bundan kattaroq narsa.

Xotira – bu bizning ichimizdagi “uyg‘otuvchi soat”. Agar xotira bo‘lmasa, biz tarixni unutimiz, kimlar biz uchun kurashganini bilmaymiz, xatolarni yana takrorlaymiz.

Masalan, siz telefoningizdagi yoki kompyuteringizdagi muhim fayllarni bexosdan o‘chirib yuborsangiz nima bo‘ladi?

O‘quvchilar: Kerakli narsalar yo‘qoladi.

O‘qituvchi: Xuddi shunday, jamiyat ham xotirasini yo‘qotsa, yo‘lini yo‘qotadi. Shuning uchun xotira – bu faqat o‘tmishni eslash emas, balki kelajakni to‘g‘ri qurish uchun ham kerak bo‘lgan kuchdir.

Aytinglar-chi, kimlarni qadrlaymiz?

O‘quvchilar: Ota-onani. Ustozni. Qahramonlarni.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Lekin qadrlash faqat so‘z bilan bo‘ladimi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Qadrlash – bu amal. Ya’ni ota-onangizga yordam berish, ustozlarni hurmat qilish, vaqtni bekorga sarflamaslik – shu oddiy ishlar ham qadrlash. Chunki agar biz berilgan imkoniyatni qadrlamasak, bu o‘sha xatdagi yigitning orzulariga befarqlik bo‘ladi.

Ayting-chi, tinchlik nima?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Keling, oddiy vaziyatni olaylik. Sinfda ikki bola janjallashib qoldi. Shunda nima bo‘ladi? Albatta, hamma bezovta bo‘ladi, dars buziladi, kayfiyat tushadi. Xuddi shunday, dunyoda mamlakatlar ham o‘zaro urishsa, bu butun Yer yuziga salbiy ta’sir qiladi. Urush butun insoniyatni rivojlanishdan to‘xtatadi, hammaga zarar yetkazadi.

Urush – bu qo‘rquv, yo‘qotish, ko‘z yoshlar degani.

Tinchlik esa – katta imkoniyat, ne’matdir. Tinchlik bor yurtda orzu qilasiz, reja tuzasiz, intilasiz, orzuga yetasiz – baxtli bo‘lasiz.

Keling, shu o‘rinda sizlarga urush va tinchlik haqidagi asarlar tavsiya qilingan videoni qo‘yib beraman. Ushbu asarlarni o‘qib, tinchlikning qadrini yanada chuqurroq anglashingiz mumkin.

Vizual kontent

“Urush va tinchlik” kutubxonasi

<https://youtu.be/9sLylkUG4XE>

O‘qituvchi: Endi qarang, agar biz o‘tmishni unutmasak, qahramonlarni qadrlasak, tinchlikning qadriga yetsak, nima bo‘ladi? Albatta, bu rivojlanayotgan jamiyatga va baxtli hayotga olib keladi.

Ko‘pchilik tinchlikni qadrlash uchun nima qilish kerak deb so‘rashi mumkin. Tinchlikni qadrlash – bu urushlarga yo‘q deyish, har qanday katta-yu kichik urushlarga yo‘q deb, masalalarni do‘stona hal qilish kerak degani. Bundan tashqari yaxshi o‘qib, olgan bilimlarini tinchlik yo‘lida ishlatish lozim. Agar dunyoda hamma mana shu ikki ishni qilsa, urushlar umuman bo‘lmas edi.

Kelinglar, endi mamlakatimizda urush jarohatlarini unutmaslik va to'g'ri xulosa chiqarish hamda faxriylarni qadrlash maqsadida barpo etilgan "G'alaba bog'i" haqida videorolik tomosha qilamiz. Unda bog' go'yoki tilga kiradi va o'z dardlarini so'zlaydi. Juda ta'sirli video. Monitorga qaraymiz.

Vizual kontent

G'alaba bog'i tilga kirsa...

<https://youtu.be/I-z62whxQxQ>

O'qituvchi: Sizlar savol berishingiz mumkin: "Urushlar nimadan boshlanadi? Nimaga dunyoda urushlar bo'ladi" deb. Bu muhim savol.

Tarixda yana shunday odamlar bo'lganki, ular boshqa xalqlarni yo'q qilishni istagan, kuch bilan boshqarishni xohlagan. Bu esa fashizm deb ataladi. Butun dunyoni titratgan, 20 million odamning o'limiga sabab bo'lgan Ikkinchi jahon urushi aynan shu fashizm tufayli boshlangan.

Shuning uchun sizlar millatchilik qilmanglar, mahalliychilik ham qilmanglar. Biz hammamiz O'zbekiston fuqarolarimiz, bir mamlakatda yashaymiz. Biz o'zaro ahil bo'lsak, yurtda tinchlik bo'ladi.

Katta bo'lib xorijga o'qishga yoki sayohatga borganingizda, o'zingizga o'xshamagan boshqa millat vakillarini ko'rganingizda, ularning qaysidir ishlari sizga tushunarsiz ko'rinsa ham, ustidan kulmanglar. Dunyodagi har bir millatga hurmat bilan qarash kerak. Shunda urushlar bo'lmaydi.

Bizning xalqimiz doimo tinchlikni sevgan, boshqalarga mehribon bo'lgan, do'stlikni qadrlagan.

Urush paytida bizning yurtimiz katta sinovdan o'tgan. Minglab yigitlar frontga ketgan, ko'plari qaytmagan, onalar farzandlarini kutgan. Lekin xalqimiz shunday vaziyatda ham boshqa davlatlardan kelgan bolalarni uyiga olgan, ularga non va mehr bergan. Odamlar dalada ishlagan, oziq-ovqat yetishtirgan va frontni ta'minlagan. Bu haqiqiy fidoyilik edi.

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov tinchlikni asrash, urushlarga va fashizmga "yo'q" deyish kerakligi haqida "Nido" degan doston yozgan. Dostonda otasi urushga ketgan siz tengi bola haqida hikoya qilinadi. Kelinglar, shu dostonan qahramonning urushdagi dadasiga maktub yozgani haqidagi parchani shoir Shahriyor Shavkat ijrosida tomosha qilamiz.

Vizual kontent

“Nido” dostonidan parcha – Shahriyor Shavkat ijrosida

https://youtu.be/kA_WoljuSEk

O‘qituvchi: Qahramonlar faqat urushda bo‘lmaydi. Masalan, bir bola suvga cho‘kayotgan boshqa bolani qutqaradi. Askar yurtini himoya qiladi. Ichki ishlar xodimi jinoyatchini ushlaydi. Ba’zida ular bu ishlarni qilayotganida o‘z hayotini qurbon ham qiladi – xuddi darsimiz boshida sizga xat yozgan o‘tmishdagi jangchi kabi. Yoki jinoyatchini zararsizlantirib odamlarni qutqaraman deb o‘zi qurbon bo‘lgan ichki ishlar xodimi, yo bo‘lmasa chegaradan dushmani o‘tkazmaslik uchun ko‘ksini qalqon qilgan askarlarimiz kabi... Shuning uchun biz ularni eslaymiz va qadrlaymiz.

Endi bir qiziq o‘yin o‘ynaymiz.

Interaktiv o‘yin: “1 daqiqa – 1 qaror”

O‘qituvchi: Bolalar, hozir biz juda qisqa, lekin muhim o‘yinni o‘ynaymiz. O‘yining nomi: **“1 daqiqa – 1 qaror”**.

Men sizlarga turli vaziyatlarni aytaman. Har bir vaziyatga javob berish uchun sizlarda atigi 10 soniya vaqt bo‘ladi. Siz tezda qaror qabul qilishingiz kerak. Lekin bunga jiddiy yondashing, chunki har bir javobingiz sizning xotirangiz, qadriyatlarangiz va tinchlikka bo‘lgan munosabatingizni ko‘rsatadi. Tayyormisiz?

O‘quvchilar: Ha!

1-vaziyat

Do‘stlaringiz kimnidir masxara qilyapti.

Siz:

A) qo‘shilib kulasiz;

B) masxaralashni to‘xtatishni so‘raysiz yoki ularga qo‘shilmaysiz;

O‘quvchilar qo‘l ko‘tarib javob beradi.

2-vaziyat

Uyda sizga yordam berishdi, lekin siz nimagadir chalg‘ib qolib, “rahmat” aytmadingiz. Keyin nima qilasiz?

A) unutib ketasiz;

B) qaytib borib rahmat aytasiz

3-vaziyat

Sinfda ikki bola janjallashib qoldi.

Siz:

A) tomosha qilasiz;

B) ajratishga yoki yordam chaqirishga harakat qilasiz.

O‘qituvchi: Siz hozir katta ish qilmadingiz. Urushga bormadingiz, qahramonlik qilmadingiz. Lekin siz kichik va to‘g‘ri qarorlar qabul qildingiz. Aynan shu kichik qarorlar jamiyatni o‘zgartiradi, insonni shakllantiradi, tinchlikni saqlaydi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolalar, dars boshida o‘qilgan xatni eslaysizmi? Endi tasavvur qiling, siz o‘sha xatga javob yozyapsiz.

Nimalarni yozgan bo‘lardingiz?

Bolalarning javoblari tinglanadi.

O‘qituvchi: Bugun sizlar bilan uchta muhim narsani bilib oldik.

Doskaga dars boshida yozilgan 3 ta so‘zning qarshisiga yozadi.

Xotira – yurakdagi quyosh.

Qadr – minnatdorlik.

Tinchlik – eng katta baxt.

Agar siz kattalarga yordam bersangiz, do‘stlaringiz bilan urishmasangiz, yaxshilikni unutmasangiz, siz ham Vatanga xizmat qilgan bo‘lasiz.

Unutmang, tinchlik osmondan tushmaydi. Uni odamlar o‘zining fidoyiligi, jonkuyarligi va to‘g‘ri qarorlari bilan yaratadi. Biz buni qadrlashimiz kerak.

Tinchlikni yo‘qotish uchun katta urushlar bo‘lishi shart emas. Shunchaki tinchlikni qadrlamaslik, “musaffo osmon” tushunchasini masxara yoki kinoya qilishning o‘zi yetarli.

Shuning uchun har biringiz o‘zingizga savol bering: “Menga berilgan tinch hayotning qadriga yetyapmanmi?”

Bugungi dunyoda turli mojarolar, qarama-qarshiliklar haqida tez-tez eshitamiz. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ham ba‘zan zo‘ravonlikni oddiy holatdek ko‘rsatadigan, nafratni kuchaytiradigan fikrlar uchraydi.

Eng muhim masala – siz bunday vaziyatlarda qaysi tomonni tanlaysiz? Tinchliksevar inson boshqalarni yomon ko‘rmaydi, muammoni kuch bilan emas, aql va muloqot bilan hal qilishga intiladi.

Har bir insonning millati, tug‘ilib-o‘sgan joyi, tili yoki dini boshqacha bo‘lishi mumkin, lekin u baribir inson. Ana shu tushuncha – haqiqiy insonparvarlikdir.

Katta urushlar birdaniga boshlanmaydi. Ular kichik nafratlardan, hurmatsizlikdan, bir-birini tushunmaslikdan boshlanadi.

Demak, tinchlikni saqlash ham aynan kundalik oddiy harakatlardan boshlanadi: kimnidir kamsitmaslik, bahsda hurmatni saqlash, adolatli bo'lish, boshqalarning fikrini eshita bilishdan.

Yodingizda tuting: tinchlik – bu sizning har kuni qiladigan to'g'ri tanlovlaringiz natijasidir.

Darsimiz shu bilan tugadi. Xayr, salomat bo'ling.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani MMTB ga qarashli 14-sonli umumta'lim maktabning boshlang'ich sinflar o'qituvchisi Jumaniyazova Nigora Urazimbetovnaning tanlovga yuborgan ssenariysi motivlaridan foydalanildi.